

OILA MUHOFAZASI – DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR**YO‘NALISHLARIDAN BIRI**

Mavlonov Feruz Oblakulovich (TDYU magistranti)

Ilmiy rahbar: Hoshimxonov Axrorxon Mo‘minovich

Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Bugungi kunda mamlakatimizda oilani muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan oila jamiyatning negizi hisoblanadi. Oilaning har tomonlama muhofaza qilish, ularni huquq va erkinliklarni ta‘minlash orqali jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlash mumkin. Mazkur maqolada mamlakatimizda oilani muhofazasi bo‘yicha amalga oshirilgan islohatlar va ularning amaliy natijalari misolar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, gender tengligi, islohatlar, oila muhofazasi, ijtimoiy himoya, qonun, sog‘liqni saqlash

Abstract. Today in our country the protection of the family has risen to the level of state policy. The family, enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, is the foundation of society. Socio-political stability in society can be ensured through the comprehensive protection of the family and the provision of their rights and freedoms. This article illustrates the reforms in the field of family protection in our country and their practical results with the help of examples.

Keywords: family, gender equality, reforms, family protection, social protection, law, health

Аннотация. Сегодня в нашей стране защита семьи поднялась до уровня государственной политики. Семья, закрепленная в Конституции Республики Узбекистан, является основой общества. Социально-политическая стабильность в обществе может быть обеспечена за счет всесторонней защиты семьи и обеспечения ее прав и свобод. В данной статье на примерах показаны реформы в сфере защиты семьи в нашей стране и их практические результаты.

Ключевые слова: семья, гендерное равенство, реформы, защита семьи, социальная защита, право, здоровье.

Oila tushunchasi, uning o'ziga xos institut sifatidagi mohiyati, o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlari, oila qonunchiligining tizimi, oila — jamiyat — davlatning o'zaro munosabatlaridagi barqarorlikni tushunish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi¹.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oilani himoyalash tizimini yaratish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, muayyan darajada qonunchilik tizimi yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27-iyundagi O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Qarori asosida oila muhofazasi yangi bosqichga ko'tardi.

Oila muhofazasi borasidagi ishlar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Fuqarolarni oila qonunchiligidan xabardorligini ta'minlash, ularni yaratib berilayotgan imkoniyatlardan foydalanishlari uchun yetarli sharoit yaratildi. Natijada aholining huquqiy bilimni oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar o'z samarasini berayotganidan dalolat beradi. Oilani huquqiy muhofaza qilish - O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, fuqarolik kodeksi, oila kodeksi, Prezident farmonlari, tegishli hukumat qarorlari orqali tartibga solinadi. Jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilani mustahkamlash, yurtimizdagi siyosiy o'zgarishlar asosida rivojlantirish, nufuzini oshirishga doir rejalashtirilgan dasturlarni bajarishda jamiyatning barcha institutlari, ayniqsa, o'zini o'zi boshqarish organlari - mahallalar ham o'z imkoniyatlaridan keng foydalangan holda faol ishtirok etmoqda.

¹ F.M. Otaxo'jayev Oila huquqi: darslik/F.M. Otaxo'jayev, Sh.R. Yuldasheva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013. 3- b

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni asosida “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazining yagona tizim sifatida Vazirlar Mahkamasining huzurida tashkil etildi. Ta’kidlash mumkinki, ayni vaqtga qadar oilalarni alohida ijtimoiy institut sifatida monitoring qiluvchi hamda bu boradagi yagona siyosatni amalga oshiruvchi davlat organi mavjud emas edi. Oilalar bilan ishlagan tashkilotlar yakdil faoliyat yuritmagani. Masalan, mahalla instituti faqatgina mahalla kesimida, xotin-qizlar qo‘mitasi ayollar masalasida, sog‘liqni saqlash tizimi ona va bola salomatligi yo‘nalishida hamda shu kabi boshqa qator tashkilotlar ham o‘z obyekti tizimida davlatimizning oila siyosatida ishtirok etib kelgandi.

Respublikada onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda. “Bolalikdan nogironlar tug‘ilishining oldini olish uchun yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni hamda homilador ayollarda tug‘ma va boshqa patologiyani barvaqt aniqlash bo‘yicha “Ona va bola skriningi” Davlat tizimini tashkil etish to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori qabul qilinganligi bu soha rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Ushbu qarorga ko‘ra, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish va shu sohada sifat o‘zgarishlarini amalga oshirishni ta’minlash borasidagi ishlar davom ettirildi. Bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi emlash darajasi qariyb 100 foizni tashkil etdi. Barcha viloyatlar markazlarida kattalar va bolalar uchun ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari, har bir tumanda eng zamonaviy tibbiyot asbobuskunolari bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2016-yil O‘zbekistonda “Sog‘lom ona va sog‘lom bola yili” deb e‘lon qilindi. 2016-yilda chekka qishloq tumanlarida yashayotgan aholi, birinchi navbatda, xotin-qizlar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy sharoitlar yaratish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta’minlash, xizmat ko‘rsatish sifatini yanada oshirish borasidagi ishlar izchil davom ettirildi.

2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangandi. Xotin-qizlarning jamiyatda har tomonlama teng huquqliligini ta'minlashga prezidentimiz boshchiligida kuchli e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi belgilangan. Oilada er va xotinning teng huquqligi ekanligi - O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chikishi, e'tikodi shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar degan konstitusiyaviy normadan kelib chiqadi². 2020-yildan boshlab, “Ayollar daftari” tizimi yo'lga qo'yilib, unga kiritilgan 90 2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so'm kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o'qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi. 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko'mak berilgan³.

Voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish oila qonunchiligining ustuvor tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur islohatlarni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizdagi har bir oilaning huquq hamda manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan holda, davlatimizning izchil va barqaror taraqqiyotiga erishishdir.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining, 08.12.1992,18-modda

³ <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/11547>

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, 08.12.1992,18-modda;
2. Otaxo‘jayev, Sh.R. Yuldasheva; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. 39 b;
3. <https://xs.uz/uz/post/oilaga-etibor-aslida-bu-ozligimizga-etibordir>;
4. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/11547>